“O‘zbekiston MET” AJ
Kuzatuv kengashiga hisobdor
Ichki audit xizmati auditorlariga
**TALABNOMA**

| | | |
|---|---|---|
| 1. | Bo‘sh lavozim nomi | Ichki audit xizmati auditori |
| 2. | Xisobdor | Kuzatuv kengashi |
| 3. | Bevosita rahbari | Kuzatuv kengashi raisiga, Ichki audit xizmati boshlig‘iga |
| 4. | Vazifalari va funksional majburiyatlari | Ichki audit natijalari bo‘yicha Jamiyat Kuzatuv kengashini ishonchli axborot bilan ta’minlash va Jamiyat faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash;<br><br>ichki audit davomida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalarni Jamiyat Boshqaruviga tezkorlik bilan kiritishda qatnashish, ularning bartaraf etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish;<br><br>barcha aksiyadorlarning, shu jumladan aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlashda ishtirok etish;<br><br>Jamiyatning buxgalteriya hisobi tizimining ishonchliligi, to‘liqligi, xolisligi va moliyaviy hisobotining ishonchliligini baholash.<br><br>Jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan har yili tasdiqlanadigan rejaga muvofiq tegishli tekshiruvlar o‘tkazish yo‘li bilan ichki auditni (har chorakda va hisobot yili yakunlari bo‘yicha) o‘tkazishda qatnashish:<br><br>• tasdiqlangan biznes-rejaning bajarilishi;<br><br>• korporativ boshqaruv tamoyillariga rioya qilish;<br><br>• buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning holati;<br><br>• soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblanishi va to‘lanishi;<br><br>• moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishda qonunchilikka rioya qilish;<br><br>• aktivlar holati;<br><br>jamiyat tomonidan tuziladigan xo‘jalik shartnomalarini |

| | | |
|---|---|---|
| | | ularning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi yuzasidan ekspertizadan o‘tkazish;<br><br>buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishda Jamiyatga uslubiy yordam ko‘rsatish, moliya, soliq, bank va boshqa qonun hujjatlari masalalari bo‘yicha maslahat berish;<br><br>Jamiyat Kuzatuv kengashi va Boshqaruviga texnik vazifalarni ishlab chiqishda, tashqi auditorlik va baholovchi tashkilotlarning takliflarini baholashda, shuningdek, auditorlik tekshiruvini o‘tkazish uchun tashqi auditorlik tashkilotini tanlashda tavsiyalar tayyorlashda ko‘maklashish;<br><br>Jamiyat Kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini monitoring qilish;<br><br>mo‘ljallanayotgan yirik bitim, Jamiyatning affillangan shaxsi bilan tuzilgan bitim yoki Jamiyatning affillangan shaxsi bilan tuzilgan yirik bitim bo‘yicha tavsiyalarni o‘rganish va berish;<br><br>Jamiyatning ichki nazorat tizimi va Jamiyatning kompaniyalar guruhi faoliyati muvofiqligi va samaradorligini baholashni amalga oshirish;<br><br>Jamiyatda va Jamiyatning kompaniyalar guruhida xatarlarni boshqarish tizimining samaradorligini baholash;<br><br>Jamiyatda va Jamiyatning kompaniyalar guruhida qabul qilingan korporativ boshqaruv tamoyillarining joriy etilishi va ularga rioya etilishini baholash. |

## II. NOMZODGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

| | | |
|---|---|---|
| 1. | Ma’lumoti | Oliy, MVA darajasiga ega bo‘lish maqsadga muvofiq |
| 2. | Mutaxassisligi | Iqtisodiyot/Moliya/Biznes |
| 3. | Ish tajribasi | Ichki audit xizmati auditori asosan xalqaro kompaniyalarning ichki auditi sohasida va/yoki tashqi audit sohasida va/yoki “Katta to‘rtlik” xalqaro auditorlik kompaniyalarining ichki auditi, tavakkalchiliklarni boshqarish va korporativ boshqaruv bo‘yicha maslahat xizmatlarini ko‘rsatish sohasida va/yoki Energetika sohasidagi kompaniyalarining ichki audit xizmatida kamida 3 yillik ish tajribasiga ega bo‘lishi, Ichki auditorlar instituti tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini va ichki auditning xalqaro professional standartlarini bilishga, O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlarini, shu jumladan auditorlik faoliyati, buxgalteriya hisobi, soliq solish masalalarini bilishga ega bo‘lishi kerak. |
| 4. | Maxsus ko‘nikmalar | ➤ Moliyaviy rejalashtirish va tahlil usullarini, moliyaviy va buxgalteriya hisoboti asoslarini bilish;<br><br>tashkilotning moliyaviy-iqtisodiy va ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni bilish;<br><br>buxgalteriya hisobini tashkil etish, moliyani boshqarish va soliq solish masalalari bo‘yicha me’yoriy va uslubiy hujjatlarni bilish;<br><br>✓ Kompetentlilik, mas’uliyatlilik, professionallik; |
| 5. | Xorjiy tillarni bilish bo‘yicha | - Ingliz va russ tillari; |
| 6. | Kompyuter savodxonligi | Ishonchli foydalanuvchi (1C, SAP (Ariba, S/4 HANA), MS office va boshqalar.); |

## III. HAMKORLIK SHARTLARI

| | | |
|---|---|---|
| 1. | Bandlik shakli (shtatlari birligida) | Jamiyat joylashgan mazildagi ofisda, to‘liq ish kuni |

| | | |
|---|---|---|
| 2. | Sinov muddati | 3 oy |
| 3. | Xizmat safarlariga | Aksiyador va kuzatuv kengashi va Ichki audit xizmati boshlig‘ining talabiga ko‘ra amalga oshiriladi. |

## IV. QO‘SHIMCHA TALABLAR

| | | |
|---|---|---|
| 1. | Sertifikatlarning mavjudligi | ✓ Xalqaro sertifikatlardan birining mavjudligi shart:<br><br>➤ CIA (Certified Internal Auditor) sertifikati;<br><br>ACCA (Association of Certified Chartered Accountants) sertifikati;<br><br>✓ CIPA (Certified International Professional Accountant) sertifikati;<br><br>✓ CPA (Certified Public Accountant) sertifikati;<br><br>DipIFR (Diploma in International Financial Reporting) diplomi;<br><br>✓ DipCPIA (Certified Professional Internal Auditor) diplomi;<br><br>✓ CFE (Certified Fraud Examiner) sertifikati;<br><br>➤ CISA (Certified Information Systems Auditor) sertifikati;<br><br>✓ CISM (Certified Information Security Manager) sertifikati |
| 2. | Shaxsiy fazilatlari | ➤ tahliliy fikrlashning yuqori darajasi;<br><br>✓ Natijaga yo‘nalganlik;<br><br>➤ Fikrlashning yuqori tizimliligi va moslashuvchanligi, ishning izchilligi;<br><br>✓ Yuqori ish qobiliyati va natijaga bo‘lgan motivatsiya;<br><br>✓ Jamoa bilan ishlash qobiliyati;<br><br>➤ Ko‘p vazifali rejimda ishlash; |

| | | |
|---|---|---|
| 3. | Sohalar | Energetika; Neft va gaz; Yengil/og‘ir sanoat; |
| 4. | Qaysi nomzodlar ko‘rib chiqilmaydi. | Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan |